

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Abdumannatov E.A. taqrizi ostida

**TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI SAMARALI TASHKIL ETISHNI
ZAMONAVIY AXBOROT TEXNALOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Email: aoynisaa@gmail.com

ORCID: 0009-0004-3470-5399

Annotatsiya: Ushbu maqolada, avvalo talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning zarurati o‘rganiladi. Bundan tashqari, mustaqil ta’limning shakllari, ya’ni auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’lim, auditoriyadagi mustaqil ta’limni blended learning asosida tashkil etish to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Shu bilan birgalikda, talabalar mustaqil ta’limini axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilishning yetarlicha afzalliklari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, texnologiya, blended learning, OOOK, avtanom guruh, ag‘darilgan guruh.

Kirish

Bugungi kunda, chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslashtira oladigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan, metodlardan foydalana oladigan mutaxassislarini tayyorlash ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Ma’lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi PQ – 3775 sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” qarori bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi nizom bo‘yicha 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab qabul qilingan 1-kurs talabalariga haftasiga 5 kunlik dars mashg‘ulotlari o‘tkazilishi va 1 kuni talabalarining mustaqil izlanishlari uchun ajratdi hamda, talabaning mustaqil izlanishiga vaqtini samarali sarflashi va o‘z ustida yanada ko‘proq ishlash imkoniyatini bermoqda [1]. Shuni o‘zi ham talabalarda mustaqil ta’lim olish jarayoni, adabiyotlar bilan ishlash, vaqtni teng taqsimlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlagagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarining asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi. Shuning uchun talabalarining mustaqil ta’lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg‘ulotlarida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq o‘qishga o‘rgatish, bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘llanma berish oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Material va uslublari

“Talabani mustaqil ishi - auditoriya va auditoriyadan tashqari fan o‘qituvchisining maslahat va tavsiyalari asosida muayyan fan bo‘yicha o‘quv rejasida ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning ma‘lum qismini talaba tomonidan o‘zlashtirishga qaratilgan tizimli faoliyatidir” [2]. Talabalarni mustaqil ta‘lim olishga tayyorlash – ularda umrbod ta‘lim olish odatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, bu odatlarni shakllantirish har bir zamonaviy oliy ta‘lim muassasalarining asosiy maqsadi hisoblanadi [3].

Hozirgi kunda masofaviy ta‘lim texnologiyasi rivojlanmoqda, natijada o‘quv materialining bir qismi elektron kurs shaklida, qolgani esa, virtual sinfdagi dars shaklida amalga oshirilishi imkoni mavjud.

Talabalar mustaqil ta‘limini zamonaviy axborot texnologiyalaridan biri bo‘lgan ommaviy onlayn ochiq kurslar (OOC)dan foydalangan holda tashkil etish bosqichlari:

1. OOC kafedrasining professor-o‘qituvchilari tomonidan OOC o‘rganilib chiqiladi.
2. Kafedraning yo‘nalishidan kelib chiqqan holda OOC o‘quv modullari ajratib olinadi. Ajratib olingan o‘quv modullarining qiyinlik darajasi, o‘quv modulini o‘zlashtirishga ketadigan vaqti, kursni o‘zlashtirish uchun talabadan talab qilinadigan minimal bilim talablari o‘rganilib chiqiladi.
3. Tanlab olingan o‘quv fan moduli bo‘yicha ichki nazoratni tashkillashtirish maqsadida imtihon-nazorat savollari tuziladi.
4. Ajratib olingan o‘quv fan modullari kafedra yig‘ilishida muhokama qilinadi va maxsus bayonnoma asosida tasdiqlanib, universitet ilmiy uslubiy kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.
5. Mustaqil ish sifatida talabalarga OOC berilayotgan o‘quv fanlari ro‘yxati tavsiya sifatida beriladi.
6. Talaba mustaqil ish sifatida OOC tomonidan taqdim etilayotgan kursni (o‘quv fanini yoki modulini) o‘zlashtiradi.
7. O‘zlashtirgandan keyin kafedra tomonidan ichki nazorat testlarini topshirib mustaqil ishi baholanadi.

Blended learning, ya‘ni aralash ta‘lim tushunchasiga Clayton Christensen Institute tomonidan quyidagicha ta‘rif berilgan: aralash ta‘lim (Blended learning) - zamonaviy ta‘lim texnologiyasi bo‘lib, o‘qituvchi ishtirokidagi ta‘lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta‘lim (eLearning) olish bilan birlashtiradi va ta‘lim oluvchi tomonidan o‘quv jarayonining tezligi, joyi, vaqti mustaqil nazorat qilinishini hamda o‘qituvchi bilan birga va onlayn o‘qish tajribasi integratsiyasini faraz qiladi.

Bugungi kunda Blended learning deganda internet va sinfdagi raqamli media ta‘lim imkoniyatlarining birlashishini nazarda tutadi.

Auditoriyadan tashqari darsni tashkil etilish modeli bo‘yicha Blended learning tasnifi:

1. Avtonom guruh. Ushbu modelni amalga oshirishda auditoriyadagi talabalar ikki guruhga bo‘linadi: birinchisi an‘anaviy o‘quv vositalari yordamida shug‘ullanadi, ikkinchisi - onlayn resurslar bo‘yicha. Guruhlarga bo‘lish mezonini o‘qituvchi belgilab beradi. Guruhlardagi talabalar soni o‘zgarishi mumkin, guruhlar almashish imkoniga ega. Shu bilan birga, ta‘lim tizimida ishga sarflangan vaqt, har bir foydalanuvchining ish hajmini miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

2. **Ag‘darilgan sinf.** Sinfdagi asosiy vaqt yangi materialni tushuntirishga ajratilgan darslarni an’anaviy tashkil etishdan farqli "ag‘darilgan sinf" modeli reproduktiv o‘quv faoliyatni uyda o‘rganishga o‘tkazishni tavsiya qiladi. Sinfdagi ish esa nazariy materialni yodlashdan bo‘shagan vaqt ichida o‘tilgan materialni muhokamasiga, turli faoliyat turlariga, ishlashning individual va guruhdagi shakllarini tashkil etishga bag‘ishlanadi.

Materialni "uyda" masofaviy o‘rganish vaqtida tizimda sarflangan vaqt hisobi yuritiladi, har bir foydalanuvchining ish hajmini miqdor va sifat ko‘rsatkichlari nazorat qilinadi.

3. **Ishchi zonalarini almashtirish.** Ushbu model ham bitta sinfga ham butun parallelga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Talabalar bir nechta guruhga bo‘linadi va zonalarga tarqatiladi:

A) Onlayn ishlash zonasi (o‘qituvchining ko‘rsatmasiga asosan individual ishlash),

B) Guruhlarda ishlash zonasi (o‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan guruhda ishlash).

Zonalarning optimal miqdori – 4 tadan ko‘p emas.

Natijalar va muhokamalar

Oliy ta’lim muassasasida Blended learning texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv jarayoni va mustaqil ta’limni tashkil etish mexanizmlari quyidagicha Metodik va test materiallar mavjud bo‘lganda talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilishi va baholashi ta’limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi va u quyidagilarga imkon yaratadi:

- talabaga o‘quv faoliyatini rejalashtirish;
- maqsad qo‘yish va o‘qish muammolarini hal qilish;
- o‘quv materialini tizimlash;
- asosiy g‘oyalarni va ikkinchi darajalilardan asosiysini ajratish;
- natijalarni baholash, test o‘tkazish va axborotlarni qiyoslash orqali o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida natijalarni baholash va o‘zini baholash.



2-rasm. Aralash ta'limning afzalliklari

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo'lgan OOOK ta'limiy platformalari va blended learning haqida ma'lumot berildi. Ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilishning, ular orqali ta'lim tizimini tashkil qilishning afzalliklari ko'rib chiqildi. Shu sababli, bugungi kunda auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarning 2 yoki 4 soatini tepada keltirilgan zamonaviy texnologiyalar orqali tashkil etish, mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishga oz bo'lsada o'z hissasini qo'shadi va barcha talabalar uchun yetarlicha qiziqarli, foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2018-yil, 5-iyun, PQ – 3775 son.
2. Rashidova O. "Proper organization of students' independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem", Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali, volume 2, issue 2, 2023, 72-81.
3. Mirzoyeva N.Sh, Rashidova O.X, "Development of critical thinking of future primary class teachers through independent education", Guliston davlat universiteti axborotnomasi, 2024-yil, №2, 3-5-betlar.
4. Madatov I.Y, "Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni blended learning texnologiyasi asosida takomillashtirish": Ped. Fan.dok. diss. – Sam. 2023. 152b.